# 2020- yil yanvar-may oylari uchun Samarqand viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-may oylarida Samarqand viloyatida jami **2028,1** mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **97,4 %** ni tashkil etdi.




## 2020- yil yanvar-may oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo’yicha shakllanadi.

Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo`lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo`yicha bo`linadi.




***Ma‘lumot uchun**: qurilish ishlari hajmi bu – o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta‘mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.*



# Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda




2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 2,9 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,4 mingtaga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan **121,9 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **81,0%)**, ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **108,6 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **7,6 %**) o'sishidir.

# Samarqand viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

| | holatiga ko‘ra: | | O‘tgan yilga nisbatan, % da |
|---|---|---|---|
| | 01.06.2019- yil | 01.06.2020- yil | |
| **Samarqand viloyati** | 2448 | 2851 | 116,5 |
| Samarqand sh. | 870 | 1005 | 115,5 |
| Kattaqo’rg’on sh. | 67 | 98 | 146,3 |
| tumanlar: | | | |
| Oqdaryo | 111 | 117 | 105,4 |
| Bulung’ur | 50 | 61 | 122,0 |
| Jomboy | 83 | 111 | 133,7 |
| Ishtixon | 115 | 139 | 120,9 |
| Kattaqo’rg’on | 93 | 122 | 131,2 |
| Qo’shrabot | 58 | 63 | 108,6 |
| Narpay | 63 | 82 | 130,2 |
| Payariq | 195 | 219 | 112,3 |
| Pastdarg’om | 260 | 281 | 108,1 |
| Paxtachi | 48 | 59 | 122,9 |
| Samarqand | 98 | 122 | 124,5 |
| Nurobod | 44 | 41 | 93,2 |
| Urgut | 180 | 206 | 114,4 |
| Tayloq | 113 | 125 | 110,6 |

# Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni 01.06.2020- yil holatiga ko'ra (ulushi % da)




***Ma'lumot uchun**: Samarqand viloyatida soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Samarqand sh. (35,3 %), Pastdarg'om tumani (9,9 %) va Payariq (7,7 %) tumanlarida qayd etildi.*

Joriy yilning yanvar-may oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **209,4** mlrd. so’mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **7,5** martaga ko’p bajarilgan bo’lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko’rsatkich darajasidan **9,0 %** punktga ko’payib, **10,3 %** ni tashkil etdi**.**



## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, % da




**O’SISH SUR’ATI 7,5 martta o’sdi.**

2019- yil yanvar-may

2020- yil yanvar-may

***Ma‘lumot uchun:*** *yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Samarqand shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining* ***41,4*** *% yoki 2019- yilning yanvar-may oyiga nisbatan* ***4,0*** *marta.), Tayloq tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining* ***29,7*** *% ) va Pastdarg’om tumanlari (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining* ***23,6*** *% ) ga to‘g‘ri keldi.*

# Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, % da




Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020 - yil yanvar-may oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **66,4 %** to‘g‘ri kelib, 2019- yilning yanvar-may oylari ko‘rsatkichiga nisbatan **2,9 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **93,2 %** ni tashkil etgan holda **1 347,3** mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

*Norasmiy sektor hissasiga to’g’ri kelgan qurilish ishlari ulushi o’tgan yilning mos davriga nisbatan o’zgarishsiz qoldi va **23,3** % ni tashkil etdi yoki **471,4** mlrd. so’m miqdorida qayd etildi. 2019 - yilning yanvar-may oylariga nisbatan **77,6** % ni tashkil etdi.*



## Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi

**ulushi % da, mlrd. so'm**







Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **27,0** mlrd. so'm yoki 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **14,8 %** ga qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **2001,1** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **141,3 %** ni tashkil etdi. Ularning viloyatdagi tutgan ulushi mos ravishda **1,3 %** va **98,7 %** ni tashkil etdi.



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da





# Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

***2020- yil yanvar-may***

**83,5 %**

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining 83,5 % yoki **1 692,7** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**99,8 %**

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **209,0** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 12,3 % ni tashkil etdi.

**75,4 %**

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1 016,5** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 60,1 % ni tashkil etdi.

**99,4%**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **467,2** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 27,6 % ni tashkil etdi.



# Hududlar kesimida qurilish ishlari 2020- yil yanvar-may oylarida

| | Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m) | O‘sish sur‘ati, % da | Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so‘m) |
|---|---|---|---|
| **Samarqand viloyati** | 2028,1 | 97,4 | 1692,7 |
| Samarqand sh. | 719,3 | 96,6 | 600,5 |
| Kattaqo’rg’on sh. | 39,6 | 103,8 | 33,2 |
| tumanlar: | | | |
| Oqdaryo | 163,3 | 92,0 | 136,3 |
| Bulung’ur | 39,0 | 86,8 | 32,6 |
| Jomboy | 89,1 | 89,1 | 74,3 |
| Ishtixon | 84,0 | 88,4 | 70,1 |
| Kattaqo’rg’on | 60,1 | 91,2 | 50,1 |
| Qo’shrabot | 45,9 | 85,9 | 38,3 |
| Narpay | 59,9 | 89,9 | 50,0 |
| Payariq | 125,4 | 89,3 | 104,6 |
| Pastdarg’om | 170,2 | 126,3 | 142,0 |
| Paxtachi | 51,6 | 84,1 | 43,0 |
| Samarqand | 91,2 | 88,0 | 76,1 |
| Nurobod | 20,6 | 80,9 | 17,2 |
| Urgut | 109,0 | 87,8 | 91,0 |
| Tayloq | 159,9 | 150,9 | 133,4 |

*Hududlar bo’yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo’shgan holda

# Samarqand viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlari,% da

## 2019 - yil yanvar-may

| Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari | Fuqarolik obyektlarini qurish | Binolar va inshootlarni qurish |
|---|---|---|
| 7,8 | 18,9 | 73,3 |

## 2020- yil yanvar-may

| Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari | Fuqarolik obyektlarini qurish | Binolar va inshootlarni qurish |
|---|---|---|
| 7,6 | 11,4 | 81,0 |

***Ma'lumot uchun:*** *Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*



# Binolar va inshootlar qurilishi

**ulushi % da**

Binolar va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **4,6 %** ni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-may oylaridagi ko‘rsatkichga nisbatan **3,7 %** punktga ko’paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan ulush 2019-yilning yanvar-may oylaridagi ko‘rsatkichga nisbatan **1,3 %** punktga ko‘payib, **66,9 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2019 - yilning yanvar-may oylaridagi ko‘rsatkichga nisbatan **5,0 %** punktga kamayib, **28,5 %** ni tashkil etdi.





# Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

**ulushi % da**

Fuqarolik obyektlarini qurish bo`yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **54,5 %** ni tashkil etdi va 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **50,8 %** punktga ko`paydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **44,3 %** (**26,7 %** punktga kamayish) hamda norasmiy sektorning ulushi **1,2 %** (**24,1 %** punktga kamayish) ni tashkil etdi.



## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

**ulushi % da**

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **5,2 %** ni tashkil etdi. Qolgan **94,8 %** kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri kelib, 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **5,2 %** punktga kamaydi.



# Hududlar kesimida qurilish ishlari
# 2020- yil yanvar-may oylarida

## Eng yuqori hajm

*(mlrd. so'm)*

1. Samarqand sh. 719,3
2. Pastdarg'om 170,2
3. Oqdaryo 163,3

## Kichik hajm

*(mlrd. so'm)*

1. Kattaqo'rg'on sh. 39,6
2. Bulung'ur 39,0
3. Nurobod 20,6

**Samarqand viloyati
Statistika boshqarmasi**

**Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi**

**Kontakt telefon: *(66) 2304532***